

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsentlari**  
**G.Sh.Aripova va G.N.Tavaldievalarning**  
**Hindistonning Dehli universitetiga**  
**xizmat safari bo'yicha**

## **HISOBOTI**

**2024-yil mart**

## **Hindiston: Toshkent kimyo-texnologiya instituti professor-o'qituvchilari Hindistonda "Butunjahon xotin-qizlarini o'rganish xalqaro VII Konferensiyasi"da qatnashdilar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020-yildagi PF-6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" maqsadlaridan hamda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsentlari G.Sh.Aripova va G.N.Tavaldiyevalar 2024-yil 7-8-mart kunlari Hindiston davlatining dunyoning top-500 universitetlari ro'yxatiga kirgan Dehli universiteti, uning qoshidagi Mata Sundra xotin-qizlar kolleji, Baku Qizlar universiteti va IKSAD hamkorligida tashkil etilgan "Butunjahon xotin-qizlarini o'rganish xalqaro VII Konferensiyasi" (WORLD WOMEN STUDIES CONFERENCE-VII) da ishtirok etdilar.

Konferensiya IKSAD Bosh kotibi Kaldigul Adilbekova, Mata Sundri ayollar kolleji direktori, Dehli universiteti Konferensiya tashkilotchisi va faxriy prezidenti Professor Xarprit Kaur, Ruanda Respublikasi Oliy komissari Jaklin Mukangira, Parij universiteti Doktori Petra Pelletier, Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsenti Gulbaxar Tavaldieva, konferensiya tashkiliy qo'mita ijrochi a'zosi Doktor Uzma Nadimlarning kirish so'zlari bilan ochildi.

Konferensiyada dotsent G.Sh.Aripova "O'zbekistonda xotin-qizlarning STEM sohalarida ishtiroki: muammolar va yechimlar (PARTICIPATION OF WOMEN IN THE STEM FIELD IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS)", dotsent G.N.Tavaldiyeva "Vatan urushi tarixida o'zbek ayoli qiyofasi hamda uning adabiyot va san'atdagi badiiy ifodasi (Image of the Uzbek woman in the history of the Patriotic War and her artistic expression in literature and art)" mavzularida ma'ruza qildilar









Shu bilan birga, 4-9-mart kunlari Aripova Gulnora Shuxratullayevna «Advantages of blended education in the system of higher education», Tavadiyeva Gulbaxar Nishanovna «Academic literacy: working on texts in the specialty» mavzularida 4-bosqich talabalari uchun ma'ruza darslari o'tdilar.





2024-yil 6-mart kuni “Butunjahon xotin-qizlari xalqaro VII Kongressi” oldidan Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsentlari G.Sh.Aripova va G.N.Tavaldievalar Hindistonning Dehli universiteti Mata Sundri qizlar kollejida “O‘zbek liboslari va milliy taomlari” ko‘rgazmasini tashkil etdilar. Ko‘rgazmada O‘zbekistonning turli oliy ta‘lim muassasalaridan borgan 20 ta professor-o‘qituvchilar ham ishtirok etdilar. Ushbu ko‘rgazmada O‘zbekistondan olib kelingan turli o‘zbek milliy matolaridan, kiyimlaridan namunalar, milliy yeguliklaridan – o‘zbek nonlari, quruq mevalar, bahor milliy taomi - sumalak namoyish etildi, ular haqida ma'lumotlar berildi. Ko‘rgazma jarayonida talabalarga o‘zbek adraslaridan tikilgan liboslar, qiyiqlar, ro‘mollar, do‘ppilar sovg‘a qilindi. Barcha ishtirokchilar o‘zbek yeguliklardan tatib ko‘rdilar. Tadbir barcha ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.







### **Toshkent kimyo-texnologiya instituti va Dehli universiteti Mata Sandra kolleji o'rtasida hamkorlik o'rnatildi**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsentlari G.Sh.Aripova va G.N.Tavaldievalar Hindistonda xizmat safarida bo'lib turgan vaqtida, 2024-yil 9-mart kuni Dehli universiteti, uning qoshidagi Mata Sandra xotin-qizlar kolleji va TKTI o'rtasida o'zaro hamkorlik o'rnatish bo'yicha kelishdilar.

Hamkorlik mazmuni o'zaro tajriba almashish, akademik almashinuv, stajirovka, ilmiy konferensiyalar o'tkazish, hamkorlikda ilmiy loyihalarni amalga oshirish kabilardan iborat.











**TKTI “O‘zbek tili va professional ta’lim” kafedrası**

**Dotsent, pedagogika fanlari nomzodi**

**G.Sh.Aripova**

**Dotsent, filologiya fanlari nomzodi**

**G.N.Tavaldiyeva**



